



**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2025-yil, 12-13-noyabr

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE
PHILOLOGY AND TRANSLATION
STUDIES”**
international scientific and practical conference
November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY
AND TRANSLATION STUDIES”**

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV

akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic “Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

O‘ZBEK TARJIMACHILIGI ISTIQBOLLARI

*Uzoq Jo‘raqulov,
filologiya fanlari doktori, professor
ToshDO‘TAU*

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.12.11/KXWT3086

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tarjimachiligining XX asr boshidan to mustaqillik davrigacha bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari tarixiy-ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadidlar faoliyati bilan boshlangan zamonaviy o‘zbek tarjimachilik maktabining shakllanishi, sovet davrida tarjima amaliyoti, tarjima nazariyasi va tarjimashunoslikning institutsional tizimga aylanish jarayoni yoritiladi. Maqolada 40–80-yillar oralig‘ida faoliyat ko‘rsatgan yetuk tarjimonlarning jahon adabiyoti durdonalarini o‘zbek tiliga olib kirishdagi xizmatlari, ularning badiiy-estetik mezonlari va tarjima strategiyalari ilmiy baholanadi. Shuningdek, sovet davrida keng qo‘llangan podstrochnik asosidagi tarjimaning nazariy va amaliy muammolari, vosita til orqali amalga oshirilgan Shekspir tarjimalari misolida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot o‘zbek tarjimachiligi rivojini milliy adabiy jarayon bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin etib, tarjimaning adabiy tafakkur va estetik saviya o‘shidagi rolini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tarjimachiligi, jadid tarjimonlari, sovet davri tarjimalari, tarjima nazariyasi, badiiy tarjima, vosita til, milliy tarjimachilik maktabi, tarjima estetikasi, xalq tili.*

Abstract. This article provides a historical and scholarly analysis of the stages in the development of Uzbek translation from the early twentieth century to the period of independence. The study examines the formation of the modern Uzbek school of translation initiated by the Jadid movement, as well as the institutionalization of translation practice, translation theory, and translation studies during the Soviet era. The article offers a critical assessment of the contributions made by prominent translators active between the 1940s and the 1980s, who introduced masterpieces of world literature into the Uzbek language, and analyzes their aesthetic principles and translation strategies. In addition, the theoretical and practical problems of podstrochnik-based translation widely used in the Soviet period are discussed, with particular reference to Shakespeare translations produced through an intermediary language. The research interprets the development of Uzbek translation as a phenomenon intrinsically linked to the national literary process and substantiates the role of translation in the growth of literary thought and aesthetic standards.

Keywords: *Uzbek translation, Jadid translators, Soviet-era translations, translation theory, literary translation, intermediary language, national school of translation, translation aesthetics, folk language.*

O‘zbek tarjimachiligining zamonaviy bosqichi, manbaviy ko‘lamining kengayishi, tizimlashuvi, nazariy bazalarining shakllanishi va takomillashuvi XX asr, xususan, o‘zbek jadidlari faoliyati bilan boshlanadi. Sovet davrida jadid mutarjimplari, rus va dunyo tarjimashunosligi tajribalari vositasida yangi o‘zbek tarjimachilik maktabi shakllandi. Ammo bu davr tarjima nazariyasi, badiiy o‘girmachilik tajribalarining o‘zbek tarjimonlari tomonidan o‘rganilishi, o‘zlashtirilishiga muayyan imkon berganidan qat’i nazar, tarjima ob’ekti ko‘lamining prinsipial ma’noda chegaralashi jihatidan, milliy tarjimashunoslik maktabining o‘zini mukammal darajada namoyon etishiga imkon bermadi. Mustaqillik davriga kelib esa, o‘zbek tarjimonlarining tarjima manbalarini tanlash, saralash, kengaytirish va nazariy bazalarni milliy asosga qurish imkoniyatlari oshdi.

20-30-yillar va undan keyingi davr o‘zbek badiiy tarjimachiligi sohasida o‘z tarjimonlik iste’dodini namoyon etgan o‘ziga xos tarjimonlar ham yetishib chiqqan. Buning yorqin misoli Sanjar Siddiqning tarjimonlik faoliyatidir. Tadqiqotchilar S.Siddiq haqida shunday yozadilar: “20-30-yillar o‘zbek matbuoti va adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan Sanjar Siddiq (Bosit Siddiqov) tarjimon va tarjimashunosgina bo‘lib qolmay, iste’dodli jurnalis, pedagog, san’atshunos va teatrshunos ham edi.

Yoshligidan mutolaaga, til o‘rganishga havasmand bo‘lgan Sanjar Siddiqning (u 1902 yilda Toshkentning Saqichmon mahallasida tug‘ilgan) rus tilini puxta egallaganligi, ingliz, nemis va tojik tillaridan durustgina xabardor bo‘lgani ma’lum. Sanjar Siddiqni ko‘rganlar, hamsuhbat bo‘lganlar u haqda faxrlanib so‘zlaydilar. Uni “o‘z davrining qomusiy olimi edi”, deyishadi” (Nahanov O. 1973:

117.). Shuningdek, S.Siddiq “Gamlet”, “Musofirxona bekasi” kabi jahon adabiyoti namunalari haqida, sahna amaliyoti va teatr tanqidchiligi, tarjimachilikning nazariy muammolari bo‘yicha qator ishlar yozgan. O‘zigacha bo‘lgan tarjimonlardan farqli o‘laroq S.Siddiq tarjima ishini professional darajaga ko‘tara olgan, yirik jahon adiblarining yirik asarlarini tarjima qilgan mutaxassisdir. Uning tarjima bisotidan LevTolstoy, Ubayd Zakoniy, Lengston Xyuz, M.Yu.Lermontov, N.Yu.Gogol asarlaridan qilingan tarjimalar o‘rin olgan. Milliy tarjimachilik rivojiga xizmat qilishi nuqtai nazaridan Sanjar Siddiq A‘zam Ayyub, Saidg‘ani Valiev, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Elbek, Usmon Nosir, Hamid Olimjon, Roiqlar qatorida turadi. “O‘zbek tarjimachiligining shakllanish jarayonini jiddiy va snehkovlik bilan kuzatib borgan Sanjar Siddiq asl nusxa tili bilan tarjima tili tafovut bo‘lmasligi (yozuvchi uslubiga putur yetkazmaslik), asl nusxa ruhini tarjimada ham saqlash uchun yoki har bir badiiy asarning tarjimasi omma tushuna oladigan sodda va ravshan til bilan “jaranglashi” uchun kurashgan” (Nahanov O. 1973: 117.). S.Siddiqning “Adabiy tarjima san’ati” kitobi (Siddiq S., O‘zSSR Davlat nariyoti, 1936), “Odam tushunmaydigan so‘zlar va oson tilda yozish to‘g‘risida” (Siddiq S. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi, 1935: 4 mart), “Adabiy tarjima asoslari” (Siddiq S. “Kitob va inqilob” jurnali, 1932: 3-son, 30-38), “Sahnada til” (Siddiq S. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi, 1935: 9 mart), “Musofirxona bekasi” (Siddiq S. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi, 1934: 24 iyun) nomli maqolalarida tarjimashunoslik nazariyasining dolzarb muammolari haqida so‘z yuritadi. Mazkur asarlarida badiiy adabiyotning har uch turiga doir asarlar, ularning tili, ritmi, poetik ruhiyati xususida salmoqli fikrlar bildiriladi. Harakatdagi tarjimachilik jarayoniga ilmiy munosabat bildirilishi bilan birga, tarjima nazariyasiga doir fikrlar ilgari suriladi. Muhimi, S.Siddiqning bunday qimmatli xulosalari bevosita tarjima amaliyoti bilan bog‘liq.

S.Siddiqning “Kavkaz asiri” (Tolstoy L.N., O‘zSSR Davlat nashriyoti, 1937), “Tergovchi (Revizor)” (Gogol N.V., O‘zSSR Davlat nashriyoti, 1937) asarlari tarjimasi kitob holida nashr etilgan. Bu tarjimalardan hali-hamon maktab va oliy o‘quv yurtlari darsliklarida, xrestomatiyalarda foydalaniladi. XIV asrda yashab ijod etgan fors shoiri Ubayd Zakoniyning “Mush va Gurba” (“Mushuk va sichqon”) nomli she‘riy asari “Lenin uchquni” gazetasining bir nechta sonlarida “Mushuk va sichqon qissasi nomi bilan” chop qilingan (Zakoniy Ubayd, 1936: 9, 12, 15, 16 fevr.). Bu tarjimaning ahamiyati shundaki, bu tarjima S.Siddiqdan ancha oldin (1871 yili) shoir Xislat qilgan o‘girmadan farq qilaraq, bolalar ruhiyati va yosh psixologiyasiga moslangan edi. Tarjimonning nasriy va dramatik asarlar tarjimasi ham o‘zbek tilining lug‘aviy hamda badiiy boyligini namoyish etishi, original ritmi, mazmuni va poetik ruhini saqlab qolgani bilan muhimdir.

Ayni an‘analar sobiq sovet ittifoqining eng gullagan davri XX asrning 40-yillaridan 80-yillarning ikkinchi yarmiga qadar izchil tarzda davom etdi. Bu davr o‘zbek tarjimachiligi uch yo‘nalishda professional darajani qo‘lga kiritdi:

- a) tarjima amaliyoti;
- b) tarjima nazariyasi;
- v) tarjimashunoslik.

Musa Toshmuhammad o‘g‘li Oybek, G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Qahhor, Mirzakalon Ismoilov, N. Alimuhamedov, Rustam Abdurahmonov, Madamin Ibrohimov, Vahob Ro‘zmatov, Mamarasul Boboyev, Mirtemir, Hamid G‘ulom, Asqad Muxtor, Mirziyod Mirzoidov singari qator tarjimonlar yetishib chiqdi. Ularning tarjimonlik faoliyatlari orqasida o‘zbek kitobxonlari Yevropaning eng yetuk ijodkorlari asarlari bilan tanishdilar. Oybek Rim adabiyoti namunalari parchalar tarjima qilishi bilan birga, mashhur Plavtning “Xumcha” komediyasini mahorat bilan o‘girdi. G‘afur G‘ulom Shekspir asarlarini tarjima qildi. Jahon xalqlarining deyarli barcha tillariga o‘girilgan “Gamlet”ni o‘zbek kitobxonlari xazinasiga aylantirdi. M.Shayxzoda tomonidan amalga oshirilgan Lermontovning “Kavkaz asiri”, “Ikki asira” she‘rlari o‘z davrida voqea bo‘ldi desak, xato

qilmaymiz. Abdulla Qahhor esa A.P.Chexov hikoyachilik an’analarini o‘zbek nasriga olib kirishi bilan birga, uning qator asarlarini o‘zbek millati adabiy-ma’naviy xazinasiga aylantirdi. Lev Tolstoyning katta epik turda yozilgan asari “Urush va tinchlik”ni o‘zbekchaga ag‘dardi. Xalq tilining zakiy bilimdoni, tom ma’nodagi xalq shoiri Mirtemir esa o‘ta ulkan ishga qo‘l urdi. Qirg‘iz xalq qahramonlik eposi “Manas”ni o‘zbek kitobxonlariga taqdim etdi. G‘.Alimuhamedov Gogolning sof kazakcha ruhiyat ufurib turgan “Dikanka qishlog‘i hangomalari” asarini xalqona tilda qayta jonlantirdi. Mirzakalon Ismoiliy badiiy nasr yo‘lidagi izlanishlarini “Anna Karenina” tarjimasiga aylantirdi. Asar tarjimasiga uzoq vaqt sarflab, o‘zbek o‘quvchisiga Tolstoy badiiyatining jozibasini anglatdi. Rustam Abdurahmonov boshqa qator tarjimalari orasida yaqqol ajralib, nur sohib turadigan I.S.Turgenev “Ovchining maktublari” romani tarjimasiga qo‘l urdi. O‘z niyatini mahorat bilan amalga oshirdi. Asardagi monologik ruh, chuqur psixologizmni o‘zbek tilida berishga erishdi. Vahob Ro‘zmatovning taajimonlik faoliyati ham o‘ziga xos bo‘lib, milliy tarjimachilik maktabi takomilida alohida o‘rin tutadi. U M.Sholoxovning “Ochilgan qo‘riq” romanini mahorat bilan o‘zbekchaga o‘g‘irgan. Tadqiqotchilar tarjimoning xalq tilini bilish va qo‘llash mahoratini alohida ta’kidlaydilar (Tarjima san’ati. Mualliflar jamoasi. 1973: 53). Mamarasul Boboev tarjimalari o‘zining muhimligi, mahorat bilan o‘g‘irilgani bilan birga, bevosita turkiy adabiyot vakillari ijod namunasiga yo‘naltirilgani bilan ahamiyatlidir. U Muso Jalilning mashhur “Maobit turmasi” asarini mahorat bilan o‘zbekchalashtirgan. So‘ng M.Lermontov “Demon”ini tarjima qilgan. Yozuvchi Hamid G‘ulom ham bu an’anani izchil davom ettirdi M.Lermontovning o‘zbek o‘quvchisida yuksak badiiy taassurot uyg‘ota olgan “Msiri”sini milliy badiiyat xazinamiz tarkibiga qo‘shgan. Asqad Muxtor esa shoirning “Qochqin” asarini o‘zbekchaga o‘g‘irgan. Sovet davri tarjimonlaridan Mirziyod Mirzoidovning ham o‘zbek tarjima maktabi ravnaqi uchun qo‘shgan hisasi kam emas. Tarjimanning, ayniqsa, badiiy tarjima saviyasi, 20-40-yillarda amalga oshirilgan tarjimalarga xos muayyan noqisliklarni o‘nglash, qayta tarjima qilish yo‘lidagi xizmatlari tadqiqotchilar tomonidan alohida ta’kidlanadi: “Katta ijtimoiy-estetik maqsadga bo‘ysundirilgan badiiy tarjima, uni amalga oshirayotgan adabiyot rivojiga samarali ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Rus klassik va sovet adabiyotidan, jaon adabiyotidan qilingan eng yaxshi tarjimalar o‘zbek sovet she’riyati, nasri, dramaturgiyasi, tanqidchiligi taraqqiyotiga qo‘shgan hissaning naziri yo‘q. Shekspir, Pushkin, Lermontov, Nekrasov asarlari tarjimalarining har biri she’riyatimiz tarixidagi muayyan davrdir. Lev Tolstoy, Gogol, Chexov, Turgenev, Ostrovskiy, Dostoevskiy, Daniel Defo, Mark Tven, Sholoxov, Tagor, Heminguey kabi ulug‘ adiblar asarlari tarjimalari nasrimiz solnomasidagi alohida-alohida boblardir. *Agar bugungi kunda nomlari zikr etilgan ulug‘ adiblar qalamiga mansub bir qator shoh asarlarni o‘zbek tiliga qaytadan tarjima qilish ehtiyoji tug‘ilgan bo‘lsa, buning boisi, o‘tgan davr ichida ijtimoiy-ma’naviy saviyaning beto‘xtov o‘sib kelayotganidir. Zero, tarjima ba’zi paytlar asl nusxa kamolidan ko‘ra, tarjimoning yoki uni shakllantirgan adabiy muhitning saviyasini muayyanroq ifodalaydi*” (kursiv bizniki. – U.J.) (Qo‘shmoqov M. Tarjima san’ati, 1978: 302.). Mirziyod Mirzoidov sovet davri o‘zbek tarjimonlari orasida aynan shu jihatlar: tarjima badiiyatini takomillashtirish, xalq tiliga yaqinlashtirish, obrazlar xarakterinining nozik qirralarini ochib berishga astoydil harakat qilgani bilan ajralib turadi. U Ilf va Petrovlarning ma’lumu mashhur “Oltin buzoq” hamda “O‘n ikki stul” romanlarini tarjima etishda mana shu jihatlarga alohida e’tibor qaratgan. Tarjima mahoratining bu kabi faziatlari tarjimoning “Olg‘a, o‘rtoqlar, mardona” (V.Vasilev), “Tehron” (Sevuns), “Nomus”, “Xusumat” (A.Shirvonzoda. Eron), “G‘oliblar himmati” (S.Shlyaxun), “Andreas fojiasi” (P.Kusberg), “Qo‘rqoq” (L.Nikulin), “Fig‘on” (Sh.Siddiqiy. Pokiston), “Hasad” (L.Rebryanu. Ruminya) kabi o‘nlab tarjimalarida o‘z aksini topgan.

O‘zbek tarjimachiligi amaliyotida ingliz Renessans adabiyotining yirik vakili Vilyam Shekspir tarjimalari o‘ziga xos ahamiyatga ega. Shu o‘rinda sovet davri o‘zbek tarjimachiligida G‘arb

adabiyoti namunalarini tarjima qilishda ba’zi muammolar ham ko’zga tashlanganini qayd etish joiz. Bularning birinchisi, tarjimonlar orasida Yevropa tillari, xususan, ingliz tilini bilmaslik, ingliz tilini biladiganlar ko’p bo’lishiga qaramasdan, aynan shu biladiganlarda tarjimonlik mahoratining yetishmovchiligi; ikkinchisi, “podstrochnik” asosida tarjima qilishning texnik va ijodiy muammolari. Bu haqda E.S.Aznaurova shunday yozadi: “Tarjimachilik ishining tashkil qilinishi borasida katta yutuqlar bilan birga, jiddiy kamchiliklar ham mavjud. Chunonchi milliy tillardan rus tiliga va G’arbiy Yevropa tillaridan milliy tillarga trjima qilish praktikasida hozirga qadar jiddiy nuqsonlarga yo’l qo’yib kelinmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri shuki, qardosh respublikalar adabiyotlaridan tarjima qiluvchi tarjimonlarimizning ko’pchiligi original tilni, ya’ni o’sha respublikalarning milliy tillarini, milliy tillarda ijod qiluvchi tarjimonlar esa G’arbiy Yevropa tillarini bilmaydilar.

Olmishinchi yillardayoq podstrochnik orqali tarjima qilish muammosi bidiiy tarjima masalalari bo’yicha o’tkazib turilgan yig’in va kengashlarda jiddiy munozaralarga sabab bo’lgan edi. Qirqinchi yillarda tug’ilgan bu muammo atrofida shu qadar ko’p gap-so’z bo’ldiki, podstrochnik orqali tarjima qilish tajribasining muxoliflari asarlarni bunday yo’l bilan ag’darayotgan mutarjimlarga nisbatan “jiddiy chora” ko’rishni talab qilsalar, podstrochnik orqali tarjima qilish tarafdorlarining ham jiddiy da’vo-dalillari bor edi” (Tarjima san’ati. Aznaurova E.S. 1973: 213-214). V.Shekspirning dastlabki o’zbekcha tarjimalari ham rus tili orqali amalga oshirilgan. Asarning ruscha tarjimasi muallifi mashhur shoir Bors Pasternak. Ulkan shoir, dramaturg, adabiyotshunos va tarjimon Maqsud Shayxzoda Shekspirning mashhur “Hamlet” tragediyasini rus tili vositasida bo’lsa ham o’ta mahorat va jo’shqinlik bilan o’zbek tiliga o’g’irgan (V.Shekspir. Hamlet. Daniya shaxzodasi. Rus tilidan Maqsud Shayxzoda tarjimasi. – T., 1948). “Maqsud Shayxzoda shekspirona yuksak dabdabali uslub maqomiga muqobil tarjima qilish maqsadida tilning shunday hissiy kechinmalarni aks ettirishga muvofiq keladigan lug’atidan foydalanadi, *dilozor, falak, taxqir* kabi so’zlar vositasi bilan kitobxonning Hamletni hayajonlantirib turgan mushkul falsafiy-axloqiy mavzu ichiga chuqurroq kirib borishiga ko’maklashadi”, deb yozadi bu haqda E.Aznaurova (kursiv muallifniki – U.J.) (Aznaurova, 1973: 218). Shekspirning “Qirol Lir” tragediyasi o’zbekning katta shoiri, o’ziga xos talant egasi G’afur G’ulom tomonidan o’girilgan (V.Shekspir. Pesalar. – T., 1960). Ruscha tarjimon muallifi Shchepkina-Kupernik (V.Shespir. Korol Lir. – M-L., 1942). Ingliz klassik tili imkoniyatlarini yaxshi bilgan E.Aznaurova Shchepkina-Kupernik tarjimalaridagi bir qator xatoliklar G’.G’ulom tarjimasida ham takrorlangani, ayniqsa bu jihat asardagi Masxara obrazi tilini ifodalarda ko’proq uchrashini qayd etgan bo’lsa ham, G’.G’ulom tarjimasining asosiy muvaffaqiyati xalq tili imkoniyatlaridan foydalanganida ekanini to’g’ri ta’kidlaydi. To’g’ri “Qirol Lir”dagi Masxara o’ta murakkab obraz. Uning nutqi ingliz xalq maydon kulgi madaniyatining tipik namunasi. Bu nutqning Shekspir davri bilan bog’liqligi uni to’g’ri anglash hatto zamonaviy inglizlarga ham qiyinchilik tug’dirishini ko’rsatadi. G’.G’ulom vosita til orqali bo’lsa-da, Shekspirga xos kinoya, qochirim, mutoyiba va latiflikni teran his etgan. Buni o’zbek tilining xalqona imkoniyatlaridan foydalanib, g’afurona komizm bilan boyitgan. Natijada o’zbek o’quvchisi “Qirol Lir”dagi Lir, Kent, Kordeliya, Gonereliya, Regana obrazlari nutqini, ayniqsa, Masxara so’zlarini milliy obrazlar tilini qabul qilgandek, bajonudil qabul qilgan...

Xulosa qilib aytganda, o’zbek tarjimachiligining zamonaviy bosqichi jadidlar faoliyati bilan boshlangan bo’lib, sovet davrida tarjima amaliyoti va nazariyasining tizimli rivoji orqali professional maktab darajasiga ko’tarildi. Bu jarayonda Sanjar Siddiq singari tarjimon va tarjimashunoslarning xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning tarjima amaliyotiga ilmiy yondashuvi, asl nusxa ruhini saqlash, xalqona va ravshan til tamoyillariga asoslanishi milliy tarjimachilik tafakkurining shakllanishiga mustahkam poydevor bo’ldi.

40–80-yillarda yetishib chiqqan tarjimonlar jahon adabiyotining eng yirik namoyandalarini o‘zbek tilida qayta yaratish orqali milliy adabiyotning estetik imkoniyatlarini kengaytirdilar, o‘zbek kitobxonining badiiy didi va adabiy saviyasini yuksaltirdilar. Shu bilan birga, vosita til orqali tarjima qilish amaliyoti muayyan yutuqlar bilan bir qatorda, badiiy aniqlik va stilistik moslik borasida qator muammolarni ham yuzaga chiqargani aniqlandi.

Mustaqillik davriga kelib esa, tarjima manbalarini erkin tanlash, asl til asosida tarjima qilish va milliy tarjima nazariyasini mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar ochildi. Demak, o‘zbek tarjimachiligi tarixiy tajriba, nazariy meros va zamonaviy ehtiyojlar uyg‘unligi asosida bugungi kunda yangi bosqichga ko‘tarilmoqda va milliy adabiyot taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar

1. Азнаурова Э. (1973). Таржима санъати. Тошкент: Фафур Фулом нашриёти.
2. Муаллифлар жамоаси (1973). Таржима санъати. Тошкент: Фафур Фулом нашриёти.
3. Наҳанов О. (1973). Санжар Сиддиқ ҳақида, Тошкент: Фафур Фулом нашриёти.
4. Олимжон Ҳ. (1936). Таржима ҳақида. Тошкент: Аланга журнали.
5. Орзибеков Р., Абдурахмонов А. (1973). Таржимашунослик муаммолари. Таржима санъати. Тошкент: Фафур Фулом нашриёти.
6. Саломов Ғ. (1973). Таржимашуносликнинг назарий масалалари. Таржима санъати. Тошкент: Фафур Фулом нашриёти
7. Сиддиқ С. (1936). Таржима сирлари, Тошкент: ЎзССР Давлат нашриёти.
8. Сиддиқ С. (1935). Адабий таржима ҳақида. Тошкент: Қизил Ўзбекистон газетаси.
9. Сиддиқ С. (1932). Адабий таржима асослари. Тошкент: Китоб ва инқилоб журнали.
10. Қахҳор А. (1973). Таржима санъати. Тошкент: Фафур Фулом нашриёти.
11. Қўшмоқов М. (1978). Таржима санъати. Тошкент: Фафур Фулом нашриёти.
12. Köprülü M.F. Edebiyat Araştırmaları. Türk Tarih Kurumu Yayınları, Ankara-1986.
13. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф. Жанр. Хронотоп //Тошкент: Фафур Фулом. – 2015. – Т. 353.
14. Жўрақулов У. Ҳ. “ТАРИХИЙ ПОЭТИКА” МИЛЛИЙ АДАБИЁТШУНОСЛИК КОНТЕКСТИДА //Ташкентский литературоведческий форум. – 2024. – Т. 1. – С. 171-179.
15. Жўрақулов У. Эзотерик тафаккур универсалияси: Навоий, Шекспир, Гёте. “ShARQ-U G‘ARB: NAVOIY VA GYOTE” мавзуидаги халқаро илмий-назарий конференция материаллари, 2023-йил, 21-июн //Тошкент: “Nurafshon business. – 2023. – Т. 8. – С. 30.
16. Asadov, M.T. 2021. “Fransuz-o‘zbek tarjimachiligi istiqbollari”. O‘zbekiston: til va madaniyat 1 (3): 125-134.
17. Asadov, M. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus’ the stranger. American Journal of Philological Sciences, 5(03), 119-123.
18. Asadov M. A comparative study of the image of sisyphus in western and uzbek literature. – 2022.

MUNDARIJA		
I SHO‘BA. TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI		
1.	Zuhriddin ISOMIDDINOV. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	Uzoq JO‘RAQULOV. O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	Xurram RAHIMOV. Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА. Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	Ne‘matilla OTAJONOV. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	Rukhsana IFTIKHAR. Beautification of Mughal women	26
7.	Наталья ФИЛИМОНОВА. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	Kosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	Xayrulla HAMIDOV. Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	Ирода СИДДИКОВА. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA. Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарый МАДРАИМОВ. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабура и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	Ziyodaxon TESHABOYEVA. “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	Zulkhumor MIRZAEVA. Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	Abdumajid MAMADALIYEV. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	Muhammadjon ABDUVALIYEV. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	Shermurod SUBHON. Ijodiy kengashlarda	84